

Muxayyoxon Axmedova,
ADCHTI, o'qituvchi

Annotation: *This article is about new language IDO, which means “generation”. There some information about “Esperanto” and how it is formed and its founders. Specific phonetic features of “ido” are borrowed from “Esperanto” and the author of the article compared them.*

Аннотация: *Эта статья о новом языке IDO, что означает "поколение". В ней содержится некоторая информация об эсперанто, о том, как он образовался, и о его основателях. Специфические фонетические особенности "ido" заимствованы из "эсперанто", и автор статьи сравнил их.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola “avlod” degan ma'noni anglatuvchi yangi IDO tili haqida. Unda esperanto, uning qanday paydo bo'lganligi va uning asoschilari haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. “Ido” ning o'ziga xos fonetik xususiyatlari “Esperanto” dan olingan va maqola muallifi ularni taqqoslagan.*

Key words: *Ido, Esperanto, esperantologist, esperantology, subject, object.*

Ключевые слова: *Идо, Эсперанто, эсперантоист, эсперантология, субъект, объект*

Kalit so'zlar: *Ido, Esperanto, esperantologist, esperantology, subject, object.*

XIX asr oxiri va XX asrning boshida fan –texnika rivojlanishi va turli xalqlarning o'zga tilning ustunligini tan olish muammolari paydo bo'lish holatlari olimlar oldiga butun dunyo xalqlari uchun umumiy yordamchi til barpo qilish vazifasini qo'yadi va yagona Esperanto tili vujudga keladi. Ido mana shu esperantodan 20 yil keyin paydo bo'lib, uni rivojlantirishi uchun rejalashtirilgan

sun'iy xalqaro tildir. Ido esperanto tilidagi "avlod" tushunchasini beradi, chunki ido esperantoning avlodi deb hisoblanadi. U 1907 yilda xalqaro yordamchi tillarni qabul qilish delegatsiyasi tomonidan qabul qilingan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, u esperanto tilining takomillashgan turi hisoblanadi va uning muallifi fransuz esperantisti Lui de Bofron deb hisoblanadi. Esperantoning dastlabki ko'rinishini rus shifokor olimi va linguisti Lazer Markovich Zamengof olib kirgan, so'ngra uning takomillashgan turi ustida fransuz matematigi Lui Kutur, rus-nemis fizigi Vilgelm Ostvald va daniyalik tilshunos Otto Espersonlar ish olib borgan.

Ixtiro qilingan davrining boshlarida ido esperantoizmga qattiq zarba berib olimlarning deyarli 10% ido tili tarafiga o'tgan, biroq fan- texnika rivojlanishi hisobiga tilning shiddatli oldinga qarab siljishi ko'p atamalarning eskirishiga va tez-tez lug'atlarning yangilanishiga olib kelgan. Bu holat ido tarafdorlarining noroziligiga sabab bo'lgan. XX asrning o'rtalariga kelib bu tilning tarafdorlari kamayib ketgan. XXI asrning boshlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bu til yana o'z tarafdorlariga ega bo'la boshladi va o'z navbatida esperantologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shdi. Idodan esperantoga (iz, oz) kabi so'z yasovchi qo'shimchalar va ba'zi iboralar o'tgan.

Ido xuddi ingliz tilining (lotin alifbosidan olingan) 26 ta harfdan iborat bo'lib dikritik belgilardan xolidir. Uning so'z boyligi ingliz, nemis, fransuz, italyan, lotin, rus, ispan va portugal tillariga asoslanadi va esperanto o'rganganlar uchun tushunarlidir.

Idoni esperanto bilan taqqoslaganda turli til sathlarga (fonetika, orfografiya, morfologiya, leksika va sintaksis) o'zgarishlar kiritilgani ko'zga tashlanadi.

Idoda 5 ta unli fonema mavjud. Ular *i, u, e, o va a* lardir. So'zdagi diftonglar affiks qo'shilish bilan emas, so'zning o'zagida hosil bo'ladi. Urg'u ko'p bo'ginli so'zlarda har doim oxiridagi bo'gindan bitta avvalgi bo'ginga tushadi, bundan fe'l so'z turkumiga tegishli so'zlar mustasno – ularda oxirgi bo'g'in urg'u oladi.

Ido tilida aniq artikl “la” turg’un holatda bo‘lib o‘zgarmaydi, noaniq artikl mavjud emas. Uning lug‘atidagi har bir so‘z o‘zakli so‘zdan iborat va grammatik qo‘shimcha qo‘shilish bilan yasaladi, shu o‘zakli boshqa so‘z yana bir boshqa so‘z anglatish uchun avvalgi grammatik ma’no anglatuvchi qo‘shimchani tashlab yangi ma’no anglatuvchi qo‘shimcha bilan yasaladi. Masalan: *libro—kitob; libri—kitoblar*.

Gapda so‘z ketma ketligi xuddi ingliz tiliga o‘xshaydi. Masalan: *Me havas la blue libro—I have the blue book. Mening havo rang kitobim bor*. Biroq kichik farqlanish ham mavjud: 1) sifat ingliz tilidagi kabi otdan oldinda kelishi mumkin va xuddi ispan tiliga o‘xshab otdan keyin kelish holati ham mavjud: *Me havas la libro blue* – ham to‘g‘ri hisoblanadi; 2) tushum kelishigi qo‘shimchasi –n ning mavjudligi, bu holat esperantodan farqli o‘laroq gapning ob‘yekti noma’lum bo‘lganda qo‘llaniladi va u o‘zbek tilining gap tartibiga oxshaydi ya’ni: sub’yekt-fe’l-ob’yekt bo‘lib keladi: *La blue libron me havas –Havo rang kitobim bor*.

Ido tilida olmoshlar yanada yaqqol eshtilishi uchun qayta ko‘rib chiqilgan: *me-ni*—birinchi shaxs birlik va ko‘plikni anglatadi. Bu tilda ikkinchi shaxs birlik uchun ikkita olmosh mavjud: *tu- sen* ya’ni yaqinroq kimsaga nisbatan ishlatiladi, *vu –siz* bu ko‘proq rasmiy holatda ishlatiladi, ikkinchi shaxs ko‘plik uchun *vi-sizlar* ishlatiladi; bundan tashqari ido tilida umumiy gender ko‘rsatkichi *lu –u* keladi. U umumiy olmosh hisoblanadi va yana qo‘shimcha мужской род uchun -- *il*, женский род uchun-- *el* va средний род uchun-- *ol* ham mavjuddir.

Idoda esperantoda bo‘lganidek kasbni anglatuvchi so‘zlarda qo‘shimchalar qo‘shilib gender ajratish holati kuzatilmaydi: *servisto –ofitsiant* bu ikkila genderga ham tegishli, faqat мужской va женский o‘zakka tegishli qo‘shimchalar qo‘shib yasalishi mumkin: *servistulo*-- мужской род uchun va *servistino*-- женский род uchun; faqat ikkita mustasno bor: 1) *patro—ota* va *matro—ona*, va *genitoro- ota-onalar*; 2) *viro- erkaklar, muliero- ayol* va *adalto-yoshi kattalarga* nisbatan ishlatiladi.

Ido tiliga jahonning turli adabiyotlari tarjima qilingan: Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichik shahzoda” asari, Injildan Avliyo Lukaning oyatlar kitobi va boshqalar.

Jahonda bunday tillarning dunyoga kelishi til boyishining asosiy sababidir. Ko‘pincha ilm va din uchun qadimdan lotin tili ishlatilgan va bu holat lotin tilining, garchi foydalanilmasa ham ahamiyatini oshirgan. Yangi barpo bo‘lgan tillar xalqlar o‘rtasida foydalanilmasa ham ilm-fan uchun qulay vaziyatni ta’minlaydi.

Bog‘lovchi so‘z: Esperanto

1. Исрин В.А / Возникновение и развитие письма, 1965; Махмудов Н. Ёзув тарихидан қисқача луғат маълумотнома. Т 1990.*Кристал Д. The Cambridge Encyclopedia of Language* — *Издательство Кембриджского университета*, 1987. — С. 353. — ISBN 978-0-521-42443-1. Dyer, Luther H (1923). *The Problem of an International Auxiliary Language and its Solution in Ido*. Jacob, Henry (1947). "II. Ido". *A Planned Auxiliary Language*. MacLeod, Dave (23 November 2005). "*Votez! Kande vu komencis lernar Ido?*" Chandler, James (6 November 1997). "*Changes in Ido since 1922*". Retrieved 19 January 2012. Bol, Jacques (15 November 2004). "*Pri Camiel de Cock*" [About Camiel de Cock] (in Ido). Chandler, James (16 April 2006). "*Lasta decido pri nova vorti*" [Latest decision on new words] (in Ido). Landais, Loïc (17 February 2008). "*Nova DK di ULI por 2008–2011*" [New SC [Steering Committee] of ULI for 2008-2011] (in Ido). Neves, Gonçalo (29 August 2008). "*demisiono ed adio*" [resignation and farewell] (in Ido). Landais, Loïc (28 September 2009). "*Linguala Komitato di ULI*" [Linguistic Committee of the ULI] (in Ido).

2. Muhayyo, A., & Avazbek, O. (2023). SIMULTANEOUS TRANSLATION AND ITS HISTORY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(6), 73-75.

3. Kosimova, M. (2024). NATIONAL-CULTURAL AND ETYMOLOGICAL ISSUES OF SPECIAL TERMS. International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(3), 577-581.

4. AHMEDOV, A., & SHAXRIZODA, X. (2024). THE ENGLISH EFFECT. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 7(3), 18-23.

5. Umidjon, M. (2023). IN DIFFERENT LANGUAGES SYSTEMS, THE LINGUACULTURAL AND GENDER RESEARCH OF THE CONCEPT OF HOSPITALITY. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 2(11), 52-56.

6. Egamberdiyeva, I. A. (2019). COMPARATIVE ANALYSIS OF ZOOMORPHIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK. In ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ (pp. 78-81).

7. ↑https://books.google.it/books?id=CAIZ9BHOkBwC&pg=PA779&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false